

PSIXIKA VA UNING EVOLYUTSIYASI. SHAXS PSIXOLOGIYASI

Egamqulova Gavharoy

Andijon Davlat Pedagogika instituti

"Maktabgacha ta'lim" fakulteti

"Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi"

yo'nalishi 101-guruh talabasi

Annotatsiya. Psixika (qadimgi yunoncha psychikos – “ruhiy”) yoki ruhiyat – yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya) ning voqelikni alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati. Asosan, sezgi, tasavvur, tafakkur, irodaviy xattixarakat va boshqa subyektiv obrazlarda aks etadi. Psixika materiyaga nisbatan ikkilamchi. Psixika materiya taraqqiyotining muayyan bosqichida – tirik organizmlarda sezuvchanlikning alohida shakli yoki his qilish qobiliyati paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan.

Kalit so'zlar: psixika, ong, individ, determinizm, shaxs, shaxs psixologiyasi

Аннотация. Психика (др. – греч. psychikos – “духовный”) или психика – свойство высокоорганизованной материи (мозга), заключающееся в отражении действительности в особой форме. В основном это отражается в интуиции, воображении, мышлении, волевом поведении и других субъективных образах. Психика вторична по отношению к материи. Психика возникла на определенном этапе развития материи-с появлением у живых организмов особой формы чувствительности или способности чувствовать.

Ключевые слова: психика, сознание, индивид, детерминизм, личность, Психология личности

Annotation. The psyche (ancient Greek psychikos – “spiritual”) or psyche is a property of highly organized matter (brain), consisting of the reflection of reality in a separate form. It is mainly reflected in intuition, imagination, thinking,

volitional behavior and other subjective images. The psyche is secondary to matter. The psyche was formed at a certain stage of the development of matter – with the appearance of a special form of sensitivity or the ability to feel in living organisms.

Keywords: psyche, mind, individ, determinism, Personality, Personality Psychology

Kirish

Psixika (qadimgi yunoncha psychikos – “ruhiy”) yoki ruhiyat – yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya) ning voqelikni alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati. Asosan, sezgi, tasavvur, tafakkur, irodaviy xattixarakat va boshqa subyektiv obrazlarda aks etadi. Psixika materiyaga nisbatan ikkilamchi. Bu psixikaning mavjudlik usuli (psixika miya xususiyati) da va uning mazmuni (psixika – obyektiv olamning subyektiv obrazi) da ko’rinadi. Psixika materiya taraqqiyotining muayyan bosqichida – tirik organizmlarda sezuvchanlikning alohida shakli yoki his qilish qobiliyati paydo bo’lishi bilan vujudga kelgan. Tirik mavjudotning morfologik-fiziologik tuzilishi murakkablashuvi, unda nerv sistemasining vujudga kelishi va tarqqiy etishi, bosh miya, uning katta yarim sharlarining shakllanishi va takomillashishi jarayonida rivojlangan. Psixika – subyektivlik bilan obyektivlikning birligidir. Psixik faoliyat doimo muayyan subyektga xos bo’lib, uning individual xususiyatlari bilan bog’langandir. Ayni vaqtda psixika obyektiv olamning muayyan manzarasini yaratuvchi miya in’ikos faoliyatining real jarayoni sifatida obyektivdir. Psixika psixik jarayonlar, holatlar va insonning psixik xususiyalarining zohiriy birligidir. Psixika rivojining oliy shakli – inson psixikasidir. Uning paydo bo’lishi va rivojlanishida insonga xos bo’lgan atrofdagi olam bilan o’zaro munosabatga kirishish usuli – mehnat hal qiluvchi rol o’ynagan. Inson psixikasi faqat biologik taraqqiyotning emas, ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning ham mahsulidir. Ijtimoiy, mehnat amaliyoti oliy, faqat

Ta'limning zamонавиy трансформатсиyаси

insongagina xos psixika shakli – ongni vujudga keltiradi. Inson psixikasining eng muhim xususiyati ishlar, hodisalar va boshqalarni oldindan ko'ra bilish va o'zi nima qilishini rejalashtirishdan iborat. Inson obyektiv voqelikdagi predmetlar va hodisalarni tajribaga asoslanib idrok qiladi. Insonning psixik faoliyati asosida birinchi va ikkinchi signal sistemalarning o'zaro ta'siri yotadi. Psixikaning muhim tomoni uning reflektorlik tabiat, ya'ni reflekslar hosil bo'lishi bu jarayoning to'xtovsiz va qat'iy kechishidir. Real psixika faoliyat ko'rinishida mavjud. Faoliyatda u shakllanadi, namoyon bo'ladi va bilib olinadi. Inson psixikasining shakllanishida ta'lim va tarbiya muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va mehnat jarayonida har bir shaxs psixikasining individual rivojlanishi yuz beradi, bu insoniyat to'plagan moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Psixikani psixologiya o'rganadi. Inson psixikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasi tashkilotchilar oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Ilmiy-materialistik ta'llimotga ko'ra, psixikaning paydo bo'lishi materianing o'zak rivojlanishi natijasidir. Organik va anorganik materiya doimo harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi.

Psixikaning paydo bo'lishi materianing uzoq taraqqiyoti bilan tushuntiriladi. Jamiki materiya, jonsiz anorganik materiyadan tortib, to materianing yuksak hamda murakkab shakli – inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyati bo'lmish aks ettirish xususiyatiga, ya'ni ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga ega. Aks ettrish shakllari materianing yashash shakllariga bog'liqdir.

Jonsiz tabiatda harakat jism yoki moddalarning o'zaro mexanik, fizik yoki kimyoviy munosabatlari tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, suvning daryo qirg'oqlarini, qoyalarni yuvishi va yemirishi, quyosh nurining oynadan aks etishi.

Psixikani o'rganish qator birlamchi tamoyillarga tayanadi, bu tamoyillar tadbiq etilayotgan ob'yektni mazmunli bayon etish, tajriba ma'lumotlariga ega

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo'lish operatsiyalarini rejalashtirish, ularni umumlashtirib, izohlash, shuningdek, ilmiy farazlarni ilgari surib, ularni tekshirish imkonini beradi. Psixologiyaning asosiy metodli tamoyillari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

1. Determinizm tamoyili – Bu tamoyilga asosan, barcha mavjudotlar ma'lum sabab, qonuniyatga ko'ra paydo bo'ladi, o'zgaradi va nobud bo'ladi. Psixologik tadqiqotda psixika hayot tarzidan kelib chiqib, mavjudotning turli tashqi sharoitlar ta'sirida o'zgarishini bildiradi.

Hayvonlar psixikasi haqida so'z yuritilganda, uning rivojlanishi biologik qonun sifatidagi tabiiy tanlanish bilan belgilanishini ta'kidlash lozim. Odam psixikasini oladigan bo'lsak, inson ongi kelib chiqishining shakllari va rivojlanish oxir-oqibat hayot uchun zarur moddiy vositalarni ishlab chiqish usulining rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi. Determinizm tamoyilidan kelib chiquvchi xulosa sifatida inson ongining ijtimoiy-tarixiy xususiyatini tushunish xizmat qiladi.

2. Ong va faoliyatning birligi tamoyili. Ong va faoliyat uzviy birlikni tashkil etadi, lekin ular bi-biriga ayna o'xshash emas. Ong faoliyat jarayonida uning ichki rejasini, dasturini hosil qilgan holda shakllanadi.

Aynan, ongda voqelikning harakatchan ko'rinishlarida yuzaga keladi, ular yordamida inson atrof-muhitda o'z yo'nalishini aniqlay oladi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili psixologlarda xulq-atvor, faoliyatni o'rgangan holda, samarali maqsadga mmuvofiq harakatlarning ichki psixologik mexanizmlarni aniqlash, ya'ni, psixikaning ob'yektiv qonuniyatlarni ochib berish imkonini beradi.

3. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanish tamoyili. Ushbu tamoyil psixika haqida uning faoliyat jarayoni va natijasi sifatida uzluksiz rivojlanishda ko'rib chiqilgandagina to'g'ri tushuncha hosil bo'lishini bildiradi.

Shaxs psixologiyasi haqida tushuncha

Insonning shaxs sifatida tarkib topishi, unga ta'sir etuvchi omillar, uning mexanizmlari haqida psixologiya fani aniq ma'lumotlarga ega. Jamiyat

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

taraqqiyotida bosh omil hisoblanuvchi, shu jamiyatning rivojlantiruvchisi bo'lib hisoblanuvchi inson odam sifatida dunyoga keladi. Uning shakllanishi o'ziga xos xususiyatlari u yashab turgan jamiyatda tarbiyalanadi, yuz beradi. Odam insoniyat vakili sifatida baholanuvchi termin bilan xarakterlanadi. Hamma odamlar, u yangi tug'ilgan yoki katta, sog'lom yoki kasal bo'lsa ham, uning sifatlari va xususiyatlaridan qat'iy nazar individ deb ataladi. "Individ" tushunchasida odamning nasl-nasabi mujassamlashgandir. Demak, individ qachonki, ongli ravishda va maqsad sari ma'lum bir faoliyatda atrof-muhitni anglasa va yaratuvchanlik xissasini qo'shsa, uni sub'yet deb atash mumkin bo'ladi. Ammo ayrim faoliyatda ishtirok etuvchi individ hamma vaqt shu faoliyatning sub'yekti bo'la olmaydi, chunki har doim ham individ bajarayotgan hatti-harakatini anglamaydi va ularni maqsadga qaratilgan holda amalgalashmasligi mumkin. Har bir individ takrorlanmas sotsial fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgandagina u shaxs bo'lib yetishadi. Shaxs bu - ongga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada yashab ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi odam individdir. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat bilan va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatli belgilaydigan sistemali tarzdagi sotsial fazilat shxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

"Shaxs" va "Individ" tushunchalari haqida yetakchi rus psixologlari B.G.Ananayev, A.N.Leont'yev, B.F.Lomov, S.Ya.Rubinshteyn kabilalar o'z tadqiqotlarida alohida to'xtalganlar.

A.N.Leont'yev shaxsan individ tomonidan egallab olingan alohida fazilat, inson munasabatlari to'lqinidagi sistemali "g'ayrihissiy" fazilatlar egasi ekanligini ta'kidlagan. Shaxs sifatida kamolga erishmagan individ bo'ladi. Bunga hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalarni misol qilishimiz mukin. Ammo individni shaxsga aylanishida qanday omillar mavjud. Rus psixologi S.L.Rubinshteyn: odam o'zidagi takrorlanmas xususiyatlariga ko'ra individuallardir. Uni o'z atrofidagilarga, borliqqa bo'lgan ongli munosabati,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

biror faoliyat bilan shug'ullanishi uning shaxs ekanligidan dalolat beradi. Individ bo'lib tug'ilgan insonni shaxsga aylanishi uchun nimalar zarur?

1. Ijtimoiylik
2. Ongga ega bo'lish
3. Faollik.
4. Insonni faollikka undovchinarsa ehtiyojdir.

Shaxs tushunchasiga psixolog olimlar tomonidan berilgan qator (50 ga yaqin) tavsiflar mavjud. Shulardan quyidagilarini keltiramiz:

1. "Shaxs – ijtimoiy munosabatlarning sub'yekti va ob'yektidir." (A.G.Kovalyov).
2. "Shaxs individlararo munosabatlarning sub'yekti sifatida." (A.V.Petrovskiy)
3. "Shaxs – jamiyatda o'z nomini anglovchi faoliyatga qodir a'zosidir." (K.K.Platonov)
4. "Shaxs faoliyat sub'yektidir."

Shaxsning tuzilishi, shakllanishi, tarkib topishda u yashayotgan muhitning kishilik jamiyatining roli juda kattadir. Birinchidan, ijtimoiy muhittagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta'sirining chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi.

Xulosa

Har bir psixik hodisaning tadqiq etilishi shu hodisaning aynan hozirgi vaqtga tegishli bo'lgan xususiyatlarining ta'rifini, yuzaga kelish va shakllanish tarixini, shuningdek, rivojlanish istiqbollarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Shaxs haqida juda ko'plab ta'rif va tushunchalar orasida amerikalik psixolog G.Ollportning ta'rifi e'tiborga loyiqidir: "Shaxs bu hayot jarayonida shakllanuvchi individual o'ziga xos psixo-fiziologik tizimlar shaxs xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u asosida ushbu insonga xos tafakkur va xulq-atvor yuzaga keladi." Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. "Umumiy psixologiya". 1-kitob. Psixologiya Psixologiya bo'limi talabalari uchun o'quv qo'llanma. T. O'zMU. 2003-y
2. G'oziyev E.G'. "Tafakkur psixologiyasi". Toshkent: Universitet, 1990-yil
3. Бернштейн Н.А. "Физиология движений и активность." М., 1990-й
4. G'oziyev E.G'. "Psixologiya" – T., O'zMU "Universitet" 2003-y
5. G'oziyev E.G'. "Xotira psixologiyasi" – ToshDU, 1994-y